

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIMIDAGI INNOVATSION YANGILIKLAR

Mamaniyozov Husniddin Toshmurodovich
SamDCHTI, Narpay xorijiy tillar fakulteti dekani

Mamasidiqova Sarvinoz Abduxalim qizi
SamDCHTI, Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, islohotlar va olib borilayotgan strategiyalar haqida yoritiladi. Qolaversa, mazkur maqolada Respublikamizdagi olis va chekka hududlarga oliy ta'limning kirib elishi haqida ham yoritiladi.

Abstract. This article sheds the changes, reforms and ongoing strategies in the education system in the Republic of Uzbekistan. In addition, this article also covers the introduction of higher education to remote and remote areas of our Republic.

Аннотация. В данной статье описаны изменения, реформы и проводимые стратегии в системе образования Республики Узбекистан. Кроме того, в данной статье также освещается внедрение высшего образования в труднодоступные и отдаленные районы нашей Республики.

Kalit so'zlar: ta'lim, rivojlantirish, qishloqlardagi Oliy ta'lim, qabul kvota.

“Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu-ilm-fan, ta'limva tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan bilim bilan chambarchas bog'liq.”

(Shavkat Miromonovich Mirziyoyev)

Bugungi kunda, rivojlanayotgan va yangilanayotgan Yangi O'zbekistonimizda bir qancha islohotlar va yangiliklar, strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonimizni har javhada yuksak cho'qqilarda Jahon miqyosida tanilishi va tan olinishi uchun amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'lim- barcha orzular eshigining kaliti deyilganidek, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Shuningdek, uning barcha bosqichlarini rivojlantirish, xalq ta'limini isloh qilish, yurtimizdagi barcha yosh avlodni ma'naviyatli, ma'rifatli va intellektual rivojlantirish kabi sifatlarga katta e'tibor bermoqda.

Bilamizki, yurtimizda biz yoshlarga bilim olishimizda bir qancha imkoniyatlar eshigi ochib berilishiga qaramay, Respublikamizning olis, chekka va to'g'li hududlarida joylashgan qishloqlardagi qobiliyatli va haqiqiy bilim egalari

masofaviy va moddiy to'sqinliklar tufayli shaharlarga kelib, yetarlicha bilim olisha olmayatganligi sir emas. Mana shu muammolarni ham bartaraf qilish uchun yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 4359-sonli qarori asosida Respublikamizning olis va chekka hududlarida ya'ni oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoji yuqori bo'lgan hududlar uchun OTM bakalaviriyatiga qabul qilish kvotalari belgilandi.

ⁱBundan Respublikamizning 9ta hududidagi 48ta tuman(shahar)ning olis, chekka va tog'li hududlarida Oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash, ushbu hududdagi qobiliyatli bilim egalarini ham oliy ta'lim bilan qamrab olish yuzasidan maqsadli qabul uchun jami 815ta o'rin ajratildi.

1. Qoraqalpoq Respublikasi- To'rtko'l, Taxtako'prik, Mo'ynoq, Ellikqal'a tumanlari uchun.
2. Buxoro viloyati- Romiton, Peshku, G'ijduvon, Shofirkon tumanlari uchun
3. Jizzax viloyati- Forish, Baxmal, Zomin, Yangiobod, G'allaorol tumanlari uchun
4. Qashqadaryo viloyati- Kitob, Dehqonobod, Chiroqchi, Muborak, Mirishkor, Yakkabog', Qamashi, Shahrisabz tumanlari uchun.
5. Navoiy viloyati- Nurota tumani, Zarafshon shahari uchun
6. Samarqand viloyati- Nurobod, Kattaqo'rg'on, Payariq, Narpay, Qo'shrabot, Urgut, Ishtixon, Pstdarg'om, Paxtachi tumanlari uchun
7. Surxandaryo viloyati- Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Boysun, Sherobod, Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari uchun
8. Toshkent viloyati- Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Ohangaron, Chinoz tumanlari uchun
9. Farg'ona viloyati- Rishton, Farg'ona, So'x tumanlari uchun

ⁱⁱQayd etilishicha, 2022-yilga kelib, O'zbekistonda Oliy Ta'lim Muassasalari soni 159 taga yetgani, 30 ta xorijiy filiallarning ochilishi, mahalliy universitetlarda xorij bilan hamkorlikda qo'shma fakultetlarning tashkil etilishi ham talabalar qamrovini sezilarli darajada oshishiga yordam berayotgan omillardan bo'layotganligini aytib o'tish zarur.

Shuningdek, ⁱⁱⁱ o'qitish sohasidagi yangilanishlar jarayonida chet tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgani yoshlarimizning o'quv va ilmiy faoliyatini xorijdagi nufuzli oliy ta'lim va tadqiqot muassasalarida davom ettirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 15-16-aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish bayoni 120- bandiga asosan, Respublikamizda xorijiy tilni yanada rivojlantirish, chekka hududlarga ham chet tillarini keng qamrovli tarzda kirib borishi maqsadida, Samarqand viloyatining ayrim chekka hududlarida ham chet tillarining fakultetlari ochilishi haqida aytib o'tgan edi. Va ^{iv}Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tllarni o'qitishni ommaviylashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Samarqand davlat chet tillari institutiga qabul kvotalari ikki, davlat granti asosida esa uch barobarga oshirildi. Chekka va

olis hududlardagi yoshlarni ham oliy ta'limga qamrab olish maqsadida Narpay va Payariq tumanlarida SamDChTI ning fakultetlari ochildi va ularning har biriga 75tadan qabul kvotalari ajratildi.



Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasini yaqqol misoli sifatida Narpay xorijiy tillar fakultetini olar ekanmiz, ushbu institut Samarqand viloyati Narpay tumani Dedan MFYda joylashgan bo'lib, bugungi kunda 140 dan ziyod talaba taqsil olib kelmoqda. Institutda barcha talaba yoshlariga yetarlicha shart-sharoitlar, qulay xonalar, axborot resusrlari va dars sifatini yanada sifatliroq bo'lishi uchun axborot kommunikativ vositalari asta-sekinlik bilan yaratib berilmoqda. Garchand, ushbu institut Samarqand viloyatining chekka hududida joylashishiga qaramay, Respublikamizning olis viloyatlari Andijon, Namangan, Farg'ona, Xorazm va Qoraqalpoq Respublikalari kabi viloyatlardan ham talabalar kelib tahsil olmoqda.

Bularning barchasi, O'zbekiston Respublikasidagi har bir fuqaro, har bir yosh avlod Oliy ta'limdan chetda qolmasligi va kelgusida malakali kadr bo'lib yetishishi, yurtimiz ravnaqiga, jahon miqyosida tanilishiga o'z xissalarini qo'shishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar eshigidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umar Murod. (08.07.2018) *Olis, Chekka va Tog'li Hududlarda Joylashgan Maktablar uchun Maqsadli Qabul Ko'rsatkichlari*. Qalampir.uz. <https://qalampir.uz/uz/news/olis-chekka-va-tog'li-%D2%B3ududlarda-zhoylashgan-maktablar-uchun-mak-sadli-k-abul-kursatkichlari-belgilandi-5921>
2. Нилуфар.А.А (2022) Бугунги Кунда Узбекистонда Таълим Тизимида Олиб Борилаётган Ислохотлар. *Academic Researchers in Education Volume 3 Issue 10*.

- a. <https://cyberleninka.ru/article/n/bugungi-kunda-zbekistonda-ta'lim-tizimida-olib-borilayotgan-islohotlar>
3. Samarqand davlat chet tillari instituti rektori Ilxomjon Madaminovich To'xtasinov.

ⁱ Umar Murod. (08.07.2018) O'lis, Chekka va Tog'li Hududlarda Joylashgan Maktablar uchun Maqsadli Qabul Ko'rsatkichlari. Qalampir.uz

ⁱⁱ Нилуфар.А.А (2022) Бугунги Кунда Узбекистонда Таълим Тизимида Олиб Борилаётган Ислохотлар. *Academic Researchers in Education Volume 3 Issue 10.*

ⁱⁱⁱ Samarqand davlat chet tillari instituti rektori Ilxomjon Madaminovich To'xtasinov.

^{iv} Samarqand davlat chet tillari instituti rektori Ilxomjon Madaminovich To'xtasinov.